XALQARO HUQUQDA YETIM VA OTA-ONA QARAMOĞIDAN MAHRUM BÖLGAN BOLALAR IJTIMOIY HIMOYASINING ASOSIY PRINSIPLARI

Turdibekov Ahror Otay öğli
Toşkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvçisi.
turdibekovahror99@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.24275032

Annotatsiya. *Maqolada yetim va ota-ona qaramoğidan mahrum bölgan bolalar ijtimoiy himoyasining xalqaro-huquqiy manbalari va Yevropa inson huquqlari sudi amaliyoti tahlil qilinadi. Bola huquqlari töğrisidagi konvensiyaning tört umumiy prinsipi va önta maxsus prinsipi "parvariş kontinuumi" sifatida tizimlaştirilib, ularning Özbekiston qonunçiligida aks etiş darajasi baholanadi.*

Аннотация. *В статье анализируются международно-правовые источники социальной защиты детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей, и практика Европейского суда по правам человека. Четыре общих и десять специальных принципов систематизированы как «континуум ухода»; оценивается их отражение в законодательстве Республики Узбекистан.*

Annotation. *The article analyses the international legal sources of social protection of orphans and children deprived of parental care and the case law of the European Court of Human Rights. Four general and ten special principles are systematised as a "continuum of care", and their reflection in the legislation of Uzbekistan is assessed.*

Kalit sözlar: *yetim bolalar, ota-ona qaramoğidan mahrum bölgan bolalar, muqobil parvariş, bolaning eng ustun manfaatlari, oilaviy muhitning ustuvorligi, deinstitutsionalizatsiya.*

Kiriş

Özbekiston Respublikasi 1992-yilda BMTning Bola huquqlari töğrisidagi konvensiyasiga qöşilgan. Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 15-moddasining törtinçi qismiga köra, xalqaro şartnomada qonundagidan boşqaça qoida belgilangan bölsa, şartnoma qoidalari qöllanilişi belgilanga[1]. Demak, Bola huquqlari töğrisidagi konvensiya prinsiplari Özbekiston uçun bevosita amal qiluvçi huquqiy asosdir. Biroq Birlaşgan Millatlar Taşkiloti (BMT) Bola huquqlari qömitasiga individual şikoyat bilan murojaat qiliş imkonini beruvçi uçinçi Fakultativ protokol[2] hali ratifikatsiya qilinmagan, holbuki Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasi bunga asos yaratadi; 2025-yildan BMT Bola huquqlari qömitasiga individual şikoyat bilan murojaat qiliş imkonini beruvçi uçinçi Fakultativ protokoliga qöşiliş masalasi ekspertlar darajasida örganilmoqda[3].

Material va metodlar

Uşbu tadqiqotda formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy tahlil, xalqaro sud amaliyotini örganiş va umumlaştiriş usullaridan foydalanildi.

[1] Özbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan). 15-modda // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-6445145 (murojaat sanasi: 02.10.2026).
[2] Optional Protocol to the Convention on the Rights of the Child on a communications procedure: adopted by UN General Assembly resolution 66/138 of 19 December 2011. – UN Doc. A/RES/66/138. – Art. 5. – URL: https://undocs.org/A/RES/66/138 (murojaat sanasi: 02.10.2026).
[3] The issue of Uzbekistan's accession to the Convention on the Rights of the Child Protocol by the UN is being studied // Darakchi.uz. – 2025. – 13 February [Elektron resurs]. – URL: https://darakchi.uz/en/196291 (murojaat sanasi: 05.11.2026).

Tadqiqot natijalari

Xalqaro huquqda “ota-ona qaramoğidan mahrum bölgan bolalar” deganda, sababidan qat’i nazar, keçasi heç bölmaganda ota-onasidan birining qaramoğida bölmagan barça bolalar tuşuniladi[4]. Bu tuşunça “yetim bola”dan kengroq bölib, ota-onasi ota-onalik huquqidan mahrum qilingan, bedarak yöqolgan yoki mehnat migratsiyasi sababli bolaga amalda ğamxörlik qilmayotgan holatlarni ham qamrab oladi. Bola huquqlari töğrisidagi konvensiyaning 20-moddasi ikkala toifa uçun yagona rejim belgilaydi: oilaviy muhitdan mahrum bölgan bola davlatning alohida himoya va yordamiga haqli ekanligi aks ettiriladi[5].

Mazkur bolalar huquqlarining manbalari majburiy xalqaro şartnomalar hamda ularni şarhlaşda muhim ahamiyatga ega “yumşoq huquq” hujjatlariga, ya’ni tavsiyaviy xarakterdagi hujjatlarga bölinadi. Yetim bolaga boşpana beriş majburiyati 1924-yilgi Jeneva deklaratsiyasidayoq qayd etilgan, 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va 1966-yilgi xalqaro paktlar esa bolani alohida himoya qiliş majburiyatini mustahkamladi. Boş Assambleyaning 1986-yilgi 41/85-son Deklaratsiyasi joylaştiriş ierarxiyasini belgiladi: birinçi navbatda öz ota-onasi, söng qarindoşlar yoki örinbosar oila, zarurat bölgandagina muassasa[6] ekanligi qayd etiladi. Eng batafsil zamonaviy standart – 2009-yilgi “Bolalarni muqobil parvariş qiliş böyiça rahbariy qoidalar” bölib, u majburiy kuçga ega bölmasa-da, Qömita tomonidan Bola huquqlari töğrisidagi 20-moddani şarhlaşda muntazam qöllanadi[7].

Nogironligi bölgan bolalar uçun 2006-yilgi Nogironlarning huquqlari töğrisidagi konvensiyaning 23-moddasi 5-bandi muhim: yaqin oila parvariş qila olmasa, davlat bolani kengroq oila yoki jamoa içida oilaviy şaroitda parvariş bilan ta’minlaşi şart[8]. Özbekistonda 2018-yilda yopiq muassasalarda yaşagan 26 532 nafar bolaning aksariyati aynan nogironligi bölgan bolalar edi[9].

Yevropa inson huquqlari sudi “Strand Lobben va boşqalar Norvegiyaga qarşi” işi böyiça 2019-yilgi qarorida bolani davlat qaramoğiga oliş vaqtinçalik çora bölişi, barça çoralar oilani qayta birlaştirişga qaratilişi va davlatning bu boradagi pozitiv majburiyati vaqt ötişi bilan kuçayişini ta’kidladi[10].

[4] Guidelines for the Alternative Care of Children: UN General Assembly resolution 64/142 of 18 December 2009. – UN Doc. A/RES/64/142. – Para. 29(a). – URL: https://undocs.org/A/RES/64/142 (murojaat sanasi: 02.10.2026).
[5] Convention on the Rights of the Child: adopted by UN General Assembly resolution 44/25 of 20 November 1989 // United Nations Treaty Series. – Vol. 1577. – P. 3. – Art. 20(1). – URL: https://www.ohchr.org/sites/default/files/crc.pdf (murojaat sanasi: 02.10.2026).
[6] Declaration on Social and Legal Principles relating to the Protection and Welfare of Children, with Special Reference to Foster Placement and Adoption Nationally and Internationally: UN General Assembly resolution 41/85 of 3 December 1986. – UN Doc. A/RES/41/85. – Arts. 3–4. – URL: https://undocs.org/A/RES/41/85 (murojaat sanasi: 02.10.2026).
[7] Guidelines for the Alternative Care of Children: UN General Assembly resolution 64/142 of 18 December 2009. – UN Doc. A/RES/64/142. – URL: https://undocs.org/A/RES/64/142 (murojaat sanasi: 02.10.2026); qöllanişiga misol: Committee on the Rights of the Child. Concluding observations on the fifth periodic report of Uzbekistan. – UN Doc. CRC/C/UZB/CO/5. – 27 October 2022. – Para. 32. – URL: https://www.ecoi.net/en/file/local/2079509/G2253375.pdf (murojaat sanasi: 09.11.2026).
[8] Convention on the Rights of Persons with Disabilities: adopted by UN General Assembly resolution 61/106 of 13 December 2006 // United Nations Treaty Series. – Vol. 2515. – P. 3. – Art. 23(5). – URL: https://undocs.org/A/RES/61/106 (murojaat sanasi: 02.10.2026).
[9] Reforming the child care system in Uzbekistan // UNICEF Uzbekistan [Elektron resurs]. – URL: https://www.unicef.org/uzbekistan/en/stories/reforming-child-care-system-uzbekistan (murojaat sanasi: 02.10.2026).
[10] ECtHR. Strand Lobben and Others v. Norway [GC], no. 37283/13, judgment of 10 September 2019. – § 208. – URL: https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-195909 (murojaat sanasi: 02.10.2026).

Bola huquqlari tõgrisidagi konvensiyaning umumiy prinsiplari

Bola huquqlari tõgrisidagi konvensiyaning tört umumiy prinsipi – kamsitişga yöl qöymaslik (2-modda), bolaning eng ustun manfaatlari (3-modda), yaşaş va rivojlaniş huquqi (6-modda) hamda bolaning fikrini hurmat qiliş (12-modda)dir. Ayrim öquv adabiyotlarida törtinçi prinsip "tinç yiğiliş erkinligi" bilan boğlanadi, biroq bu erkinlik alohida 15-moddada mustahkamlangan va umumiy prinsiplarga kirmaydi.

Kamsitişga yöl qöymaslik bolani ota-onasining maqomiga köra kamsitişni hamda "mehribonlik uyi bitiruvçisi" sifatidagi stigmatizatsiyani taqiqlaydi. Eng ustun manfaatlar prinsipi bir vaqtda moddiy huquq, talqin prinsipi va protsessual qoida hisoblanadi[11]; şu bois joylaştiriş haqidagi qarorda bola manfaatlari qanday baholangani asoslab berilişi şart. Yaşaş va rivojlaniş huquqi oilaviy parvarişga ustuvorlik berişni taqozo etadi, çunki yirik muassasalarda ösgan bolalarda jismoniy, kognitiv va boğlaniş munosabatlarida sezilarli keçikişlar kuzatiladi[12].

Bolaning fikrini hurmat qiliş prinsipiga köra, 12-moddada eng kiçik yoş çegarasi belgilanmagan.

Ota-ona qaramoğidan mahrum bolalarni himoya qilişning maxsus prinsiplari

Birinçidan, oilaviy muhitning ustuvorligi: davlatning birinçi vazifasi bolaning öz oilasida qolişi yoki unga qaytişini, bu imkonsiz bölsa, doimiy yeçimni ta'minlaşdir[13].

Ikkinçidan, oilani qöllab-quvvatlaş va ajralişning oldini oliş: moddiy qaşşoqlik bolani oiladan ajratişning yagona asosi bölmasligi kerak[14]; bu prinsip Bola huquqlari tõgrisidagi konvensiyaning 26 va 27-moddalaridagi ijtimoiy ta'minot va ota-onalarga moddiy yordam körsatiş majburiyati bilan çambarças boğliq[15]. **Uçinçidan, zaruriylik:** muqobil parvariş faqat sönggi çora sifatida va iloji boriça qisqa muddatga qöllaniladi[16].

Törtinçidan, muvofiqlik: parvariş şakli bolaning ehtiyojlariga mos, puxta baholaş asosida va bola iştirokida tanlanadi.

Beşinçidan, institutsional parvarişning istisno xususiyati va deinstitutsionalizatsiya: uç yoşgaça bolalar oilaviy şaroitda parvariş qilinişi, yirik muassasalar esa bosqiçma-bosqiç tugatilişi lozim[17].

Oltinçidan, tarbiyaning uzluksizligi va identiklikni saqlaş: bolaning etnik, diniy, madaniy mansubligi va ona tili hisobga olinadi, aka-uka va opa-singillar alohida joylaştirilmaydi.

[11] Committee on the Rights of the Child. General comment № 14 (2013) on the right of the child to have his or her best interests taken as a primary consideration (art. 3, para. 1). – UN Doc. CRC/C/GC/14. – 29 May 2013. – Para. 6. – URL: https://undocs.org/CRC/C/GC/14 (murojaat sanasi: 02.10.2026).

[12] van IJzendoorn M.H., Bakermans-Kranenburg M.J., Duschinsky R. et al. Institutionalisation and deinstitutionalisation of children 1: a systematic and integrative review of evidence regarding effects on development // The Lancet Psychiatry. – 2020. – Vol. 7, № 8. – P. 703–720. – URL: https://doi.org/10.1016/S2215-0366(19)30399-2 (murojaat sanasi: 02.10.2026).

[13] Guidelines for the Alternative Care of Children: UN General Assembly resolution 64/142 of 18 December 2009. – UN Doc. A/RES/64/142. – Para. 3. – URL: https://undocs.org/A/RES/64/142 (murojaat sanasi: 02.10.2026).

[14] Guidelines for the Alternative Care of Children: UN General Assembly resolution 64/142 of 18 December 2009. – UN Doc. A/RES/64/142. – Para. 15. – URL: https://undocs.org/A/RES/64/142 (murojaat sanasi: 02.10.2026).

[15] Convention on the Rights of the Child: adopted by UN General Assembly resolution 44/25 of 20 November 1989 // United Nations Treaty Series. – Vol. 1577. – P. 3. – Arts. 26, 27(3). – URL: https://www.ohchr.org/sites/default/files/crc.pdf (murojaat sanasi: 02.10.2026).

[16] Guidelines for the Alternative Care of Children: UN General Assembly resolution 64/142 of 18 December 2009. – UN Doc. A/RES/64/142. – Para. 14. – URL: https://undocs.org/A/RES/64/142 (murojaat sanasi: 02.10.2026).

[17] Guidelines for the Alternative Care of Children: UN General Assembly resolution 64/142 of 18 December 2009. – UN Doc. A/RES/64/142. – Paras. 21–23. – URL: https://undocs.org/A/RES/64/142 (murojaat sanasi: 02.10.2026).

Yettinçidan, joylaştirişni davriy qayta körib çiqiş (25-modda). **Sakkizinçidan, farzandlikka olişning bola manfaatlariga böysunişi va xalqaro farzandlikka olişning subsidiarligi** (21-modda).

Töqqizinçidan, parvarişdan çiqqandan keyin qöllab-quvvatlaş: uy-joy, ta'lim, işga joylaşiş va psixologik yordam oldindan rejalaştiriladi. **Öninçidan, davlatning yakuniy javobgarligi:** parvarişni nodavlat taşkilotlar körsatgan taqdirda ham uning sifati va monitoringi uçun javobgarlik davlatda qoladi.

Bu prinsiplar yagona ketma-ketlikni – oilani saqlab qoliş, oilaviy muqobil parvariş, istisno tariqasida vaqtinça turar joyli parvariş, doimiy yeçim va mustaqil hayotga ötişda qöllab-quvvatlaşni taşkil etadi. Bu "parvariş kontinuumi" deb ataladi. Qömita 2022-yilda Özbekistonga qaşşoqlik, nogironlik yoki ajraliş bolani oiladan ajratişning yagona asosi bölmasligini, uç yoşgaça bolalar faqat oilaviy muhitda parvariş qilinişini va bolalarning sudda eşitiliş huquqini ta'minlaşni tavsiya etgani ham şu mezonga asoslanadi[18].

Tadqiqot natijalari tahlili

Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasiga köra, davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bölgan bolalarni boqiş, tarbiyalaş va ta'lim olişini ta'minlaydi, 78-moddasi esa bolaning tölaqonli rivojlanişi uçun eng yaxşi şart-şaroitlarni yaratişni davlat majburiyati sifatida belgilaydi[19]. Oila kodeksining 65-moddasi har bir bolaning oilada yaşaş va tarbiyalaniş huquqini, ota-onasi bölmaganda yoki ular ota-onalik huquqidan mahrum etilganda esa bu huquqni vasiylik va homiylik organi ta'minlaşini belgilaydi[20], 68-moddasi esa bolaning fikrini yoşidan qat'i nazar körib çiqişni talab qiladi[21]. "Bola huquqlarining kafolatlari töğrisida"gi Qonun Bola huquqlari töğrisidagi konvensiyaning milliy ifodasi hisoblanadi[22]. 2026-yil 11-sentabrdagi ÖRQ-1174-son Qonun bilan Oila kodeksiga kiritilgan özgartirişlar oilaviy joylaştirişning (farzandlikka oliş, vasiylik, homiylik, tutingan oila) ustuvorligini va muassasaga faqat bu imkonsiz bölganda joylaştirişni qonun darajasida mustahkamladi, voyaga yetmaganlarga vasiylik va homiylik belgilaş esa "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari vakolatiga ötkazildi[23]. Endi asosiy vazifa bu normalarning amalda ijrosini ta'minlaşdan iborat.

[18] Committee on the Rights of the Child. Concluding observations on the fifth periodic report of Uzbekistan. – UN Doc. CRC/C/UZB/CO/5. – 27 October 2022. – Paras. 20(a), 32(d), 32(g). – URL: https://www.ecoi.net/en/file/local/2079509/G2253375.pdf (murojaat sanasi: 09.11.2026).

[19] Özbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan). 77–78-moddalar // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-6445145 (murojaat sanasi: 02.10.2026).

[20] Özbekiston Respublikasining Oila kodeksi (Özbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi 607-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan). – 65-modda // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-104720 (murojaat sanasi: 02.10.2026).

[21] Özbekiston Respublikasining Oila kodeksi (Özbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi 607-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan). – 68-modda // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-104720 (murojaat sanasi: 02.10.2026).

[22] Özbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi "Bola huquqlarining kafolatlari töğrisida"gi ÖRQ-139-son Qonuni // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-1297315 (murojaat sanasi: 02.10.2026).

[23] Özbekiston Respublikasining 2026-yil 11-sentabrdagi "Bolalarni ijtimoiy himoya qiliş tizimi takomillaştirilişi munosabati bilan Özbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qöşimça va özgartirişlar kiritiş töğrisida"gi ÖRQ-1174-son Qonuni // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-8472495 (murojaat sanasi: 05.11.2026).

Xulosa

Birinçidan, yetim va ota-ona qaramoğidan mahrum bolalarni himoya qiliş majburiy şartnoma normalari va ularni şarhlovçi “yumşoq huquq” ya’ni tavsiyaviy hujjatlaridan iborat yaxlit tizimga aylangan.

Ikkinçidan, himoyaning asosini Bola huquqlari töğrisidagi konvensiyaning tört umumiy prinsipi taşkil etadi; törtinçi prinsip sifatida faqat 12-moddadagi bolaning eşitiliş huquqi e’tirof etiladi.

Uçinçidan, önta maxsus prinsip birgalikda “parvariş kontinuumi”ni taşkil etadi va milliy qonunçilikni baholaşda asosiy mezon bölib xizmat qiladi.

Törtinçidan, Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi va maxsus qonunlar xalqaro prinsiplarning asosiy qismini implementatsiya qilgan, 2026-yilda esa oilaviy joylaştirişning ustuvorligi Oila kodeksida bevosita mustahkamlandi. Biroq joylaştirişni davriy qayta körib çiqiş va parvarişdan çiqqan yoşlarni qöllab-quvvatlaş mexanizmi yetarli emas, Özbekiston uçinçi Fakultativ protokol va 1993-yilgi Gaaga konvensiyasining iştirokçisi emas. Şu bois milliy qonunçilikni uşbu prinsiplar asosida takomillaştiriş lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar röyxati

1. Özbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan) // Qonunçilik ma’lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-6445145 (murojaat sanasi: 02.10.2026).
2. Optional Protocol to the Convention on the Rights of the Child on a communications procedure: adopted by UN General Assembly resolution 66/138 of 19 December 2011. – UN Doc. A/RES/66/138. – URL: https://undocs.org/A/RES/66/138 (murojaat sanasi: 02.10.2026).
3. The issue of Uzbekistan’s accession to the Convention on the Rights of the Child Protocol by the UN is being studied // Darakchi.uz. – 2025. – 13 February [Elektron resurs]. – URL: https://darakchi.uz/en/196291 (murojaat sanasi: 05.11.2026).
4. Guidelines for the Alternative Care of Children: UN General Assembly resolution 64/142 of 18 December 2009. – UN Doc. A/RES/64/142. – URL: https://undocs.org/A/RES/64/142 (murojaat sanasi: 02.10.2026).
5. Convention on the Rights of the Child: adopted by UN General Assembly resolution 44/25 of 20 November 1989 // United Nations Treaty Series. – Vol. 1577. – P. 3. – URL: https://www.ohchr.org/sites/default/files/crc.pdf (murojaat sanasi: 02.10.2026).
6. Declaration on Social and Legal Principles relating to the Protection and Welfare of Children, with Special Reference to Foster Placement and Adoption Nationally and Internationally: UN General Assembly resolution 41/85 of 3 December 1986. – UN Doc. A/RES/41/85. – URL: https://undocs.org/A/RES/41/85 (murojaat sanasi: 02.10.2026).
7. Convention on the Rights of Persons with Disabilities: adopted by UN General Assembly resolution 61/106 of 13 December 2006 // United Nations Treaty Series. – Vol. 2515. – P. 3. – URL: https://undocs.org/A/RES/61/106 (murojaat sanasi: 02.10.2026).

8. Reforming the child care system in Uzbekistan // UNICEF Uzbekistan [Elektron resurs]. – URL: https://www.unicef.org/uzbekistan/en/stories/reforming-child-care-system-uzbekistan (murojaat sanasi: 02.10.2026).
9. ECtHR. Strand Lobben and Others v. Norway [GC], no. 37283/13, judgment of 10 September 2019. – URL: https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-195909 (murojaat sanasi: 02.10.2026).
10. Committee on the Rights of the Child. General comment № 14 (2013) on the right of the child to have his or her best interests taken as a primary consideration (art. 3, para. 1). – UN Doc. CRC/C/GC/14. – 29 May 2013. – URL: https://undocs.org/CRC/C/GC/14 (murojaat sanasi: 02.10.2026).
11. van IJzendoorn M.H., Bakermans-Kranenburg M.J., Duschinsky R. et al. Institutionalisation and deinstitutionalisation of children 1: a systematic and integrative review of evidence regarding effects on development // The Lancet Psychiatry. – 2020. – Vol. 7, № 8. – P. 703–720. – URL: https://doi.org/10.1016/S2215-0366(19)30399-2 (murojaat sanasi: 02.10.2026).
12. Committee on the Rights of the Child. Concluding observations on the fifth periodic report of Uzbekistan. – UN Doc. CRC/C/UZB/CO/5. – 27 October 2022. – URL: https://www.ecoi.net/en/file/local/2079509/G2253375.pdf (murojaat sanasi: 09.11.2026).
13. Özbekiston Respublikasining Oila kodeksi (Özbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi 607-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan) // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-104720 (murojaat sanasi: 02.10.2026).
14. Özbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi "Bola huquqlarining kafolatlari töğrisida"gi ÖRQ-139-son Qonuni // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-1297315 (murojaat sanasi: 02.10.2026).
15. Özbekiston Respublikasining 2026-yil 11-sentabrdagi "Bolalarni ijtimoiy himoya qiliş tizimi takomillaştirilişi munosabati bilan Özbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qöşimça va özgartirişlar kiritiş töğrisida"gi ÖRQ-1174-son Qonuni // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-8472495 (murojaat sanasi: 05.11.2026).